

VI. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-hilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-dekabr)

	mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Jamiga nisbatan % da
Jami xizmatlar	11 786,8	121,4	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	588,4	112,9	5,0
Moliyaviy xizmatlar	1 887,6	124,6	16,0
Transport xizmati	2 240,0	124,9	19,0
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari			
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	242,9	110,0	2,1
Savdo xizmatlari	3 835,9	113,8	32,5
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	317,1	128,7	2,7
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	559,1	132,6	4,7
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	241,8	138,2	2,1
Ijara va prokat xizmatlari	257,1	121,5	2,2
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	352,4	132,1	3,0
Boshqa shaxsiy xizmatlar	777,1	131,2	6,6
Me’morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar	134,5	121,6	1,1
Boshqa turdagи xizmatlar	352,9	132,1	3,0

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (32,5 %), transport xizmatlari (19,0 %), moliyaviy xizmatlar (16,0 %) tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,1 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (2,1 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,1 %) tashkil etgan.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida bajarilgan xizmatlar tarkibi, (% da)



2021- yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 11 786,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 113,8 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 32,5 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 124,9 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 19,0 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar 124,6 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 16,0 % ni tashkil etdi.


Shaxsiy xizmatlari 131,2 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 6,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa axborotlashtirish xizmati 112,9 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.


Ta’lim sohasidagi xizmatlari 132,6 % ga oshgan bo‘lib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan xizmatlar tarkibi


(jami xajmga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi
(2021- yil yanvar-dekabr, mldr.so 'm)



**Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan
xizmatlar hajmi aholi jon boshiga**
(2021- yil yanvar-dekabr, ming so'm)




Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati To'raqo'rg'on tumaniga 752,4 mlrd. so'm (122,3 %) va Norin tumanida 535,0 mlrd. so'm (122,3 %)ga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (7 265,2 ming so'm), Mingbuloq tumanida (3 702,7 ming so'm) va Pop tumanida (3 479,4 ming so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi
(2021- yil yanvar-dekabr)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	mlrd. so'm	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	11 786,8	121,4	100,0	4 065,4	118,9
Namangan sh.	4 744,2	122,3	40,2	7 265,2	119,5
Mingbuloq	480,6	122,1	4,1	3 702,7	119,5
Kosonsoy	613,9	119,9	5,2	2 851,2	117,2
Namangan t.	654,7	121,0	5,6	3 601,0	118,6
Norin	535,0	122,3	4,5	3 190,3	120,2
Pop	781,8	122,1	6,6	3 479,4	120,0
To'raqo'rg'on	752,4	122,3	6,4	3 261,5	119,6
Uychi	647,9	119,3	5,5	2 951,7	116,6
Uchqo'rg'on	621,9	119,2	5,3	3 525,7	116,9
Chortoq	653,8	120,4	5,5	3 201,6	118,2
Chust	737,5	120,1	6,3	2 712,3	117,9
Yangiqo'rg'on	563,1	119,3	4,8	2 510,7	116,8

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida alohida xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so‘m**



■ 2020- yil yanvar-dekabr ■ 2021- yil yanvar-dekabr

Eng yuqori o‘sish sur‘atlari sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (138,2 %), ta’lim sohasidagi xizmatlar (132,6 %), shahsiy xizmatlar (131,2 %), moliyaviy xizmatlar (124,6 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o‘rinni avtomobil transportida ko‘rsatilgan xizmatlar (92,9 %) egallaydi.


Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiyl xajmining 6,8 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo‘yicha transport xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 78,3 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,2 % ga yetdi.

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida transport turlari bo‘yicha
transport xizmatlari tarkibi, % da**



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,5 % ni egallaydi.



- Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan xolda
- Ulgurji savdo xizmatlari (Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va matosikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar